

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOTAMOV ALISHER XOTAMJON O‘G‘LI

**YENGIL SANOAT KORXONALARIDA TAYYOR MAHSULOTLAR HISOBI
VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Xotamov Alisher Xotamjon o‘g‘li

Yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobi va auditini
takomillashtirish.....3

Хотамов Алишер Хотамжон угли

Совершенствование учета и аудита готовой продукции на предприятиях легкой
промышленности.....25

Khotamov Alisher Khotamjon ugli

Improvement of accounting and audit of finished products in light industrial
enterprises49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOTAMOV ALISHER XOTAMJON O‘G‘LI

**YENGIL SANOAT KORXONALARIDA TAYYOR MAHSULOTLAR HISOBI
VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.2.PhD/Iqt2244 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rizayev Nurbek Kadirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ziyev Islom Ne'matovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "29" 02 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. E-mail: tsue_info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1402 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. E-mail: tsue_info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "12" 02 kuni tarqatildi.

(2024-yil "12" 02 dagi 11 raqamli reestr bayonnomasi).



M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida aholi sonining jadal sur'atlarda o'sib borishi ko'plab global muammolar, xususan, yengil sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni miqdor va sifat jihatidan to'liq qondirish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. "Jahonda yengil sanoat mahsulotlari iste'moli hajmi oziq-ovqat sanoatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi, jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 3 %ni tashkil etadi, eng yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda esa uning qiymati 10 %dan oshadi"¹. Hozirgi kunda dunyoning taraqqiy etgan davlatlari ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish va diversifikatsiyalash asosida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali jahon bozoridagi raqobatdoshligini kuchaytirishga erishmoqda. "2021-yilda jahon to'qimachilik bozorining hajmi 993,6 milliard AQSh dollariga baholandi. 2022–2030-yillar oralig'ida yillik o'sish sur'ati 4,0 foiz bo'lishi kutilmoqda"². Dunyo miqyosida yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlarni hisobga olish, mahsulot tannarxini hisoblash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati hamda hisobotlarining to'g'ri va aniqlik darajasiga bog'liqligini e'tirof etgan holda, tayyor mahsulotlar hisobi va auditni takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida hamda ulardagi bo'linmalarning xo'jalik faoliyatini boshqarish uchun buxgalteriya hisobini rivojlantirish va axborot bazasini yaratish; yengil sanoat korxonalarini boshqarish tizimining umumiy tarkibida xarajatlar va mahsulotlarni boshqarishning metodologik asoslarini ishlab chiqish; yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar va ularni sotishni hisobga olish hamda uning auditini rivojlantirish; yengil sanoat tizimida mahsulotlar realizatsiyasining uslubiy jihatlarini o'rganish; tikuv-trikotaj korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan yengil sanoat korxonalariga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Mazkur strategiyada "Zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravar va charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni uch baravarga ko'paytirish"³ vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, respublikamiz to'qimachilik korxonalarini rivojlantirishning mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi tanlab olingan. Shu maqsadda to'qimachilik tarmog'i korxonalarida

¹ <https://qaztrade.org.kz/eng/trends-in-the-development-of-light-industry>

² <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

faoliyatini modernizatsiyalash va mahsulotlar assortimentini diversifikatsiyalash maqsadlari uchun hisob va audit tizimini xalqaro tajribalar asosida tashkil qilish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash mamlakatimizdagi yengil sanoat, xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini oshirishga olib keladi. Bugungi kunda yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini yaratish talab etilmoqda. Shu jihatdan xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizdagi yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobi va auditining tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 16-sentabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-sentabrdagi 538-son "Auditorlik tashkilotining ish sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tayyor mahsulotlar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy asoslari O.Gudkova, E.Xendriksen, M.Van Breda, R.Entoni, Dj.Ris, B.Nidlz, X.Anderson, D.Kolduell, V.Kovalev, Steven M.Bragg, V.T. Tran, C.Carvalho, C.Okafor, J.P. Juanga-Labayen, T.Wiegand, A.Sugeng, C.Coppola, A.Arens, J.Lobbek⁴ kabi xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

⁴ Гудкова О.В. Учетно-контрольное обеспечение системы управления производственными запасами в организациях хлебопекарной промышленности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. ФГОУ ВПО "Российский государственный аграрный университет". – Москва, 2009. – 22 с.; Хендриксен Э.С., Ван Бредя М.Ф. Теория бухгалтерского учета. //Пер.с англ. – М.: "Финансы и статистика", 2000. – 576 с.; Энтони Р., Рис Дж. Учет: ситуации и примеры: //Пер. с англ./Под ред. и предисл. А.М. Петрачкова. – М.: "Финансы и статистика", 1993. – 560 с.; Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – М.: "Финансы и статистика", 2004. – 496 с.; Ковалев В.В. Финансовый

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.Aliqulov, A.Achilov, K.Axmedjanov, B.Xasanov, N.Xajimuratov, R.Dusmuratov, N.Abdusalomova, B.Maxsudov, R.Xolbekov, A.Ibragimov, A.Karimov, D.Mavlyanova, U.Nurmanov, A.Pardayev, M.Pardayev, N.Raxmonov, S.Tashnazarov, A.Tuychiyev, M.Nabiyev va A.Maxmudov⁵lar tomonidan tayyor mahsulotlar hisobi va auditini takomillashtirishning ayrim masalalari tadqiq qilingan.

Yuqorida ism-sharifi qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan to'qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari kompleks hamda yaxlit tarzda to'liq o'rganilmagan. Shu sababli tayyor mahsulotlar hisobi va auditi bo'yicha tashkiliy-uslubiy muammolarning mavjudligi, iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarida yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi bu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

анализ: методы и процедуры. – М.: “Финансы и статистика”, 2001. – 560 с.; 328; Steven M.Bragg Inventory accounting A COMPREHENSIVE GUIDE 2005. Tran V. T. et al. Factor affecting the implementation of responsibility accounting on firm performance–Empirical analysis of listed textile firms //Cogent business & management. – 2022. – Т. 9. – №. 1. – С. 2032912.; Carvalho C. P., Carvalho D. S., Silva M. B. Value stream mapping as a lean manufacturing tool: A new account approach for cost saving in a textile company //International Journal of Production Management and Engineering. – 2019. – Т. 7. – №. 1. – С. 1–12.; Okafor C. C. et al. Sustainable management of textile and clothing //Clean Technol. Recycl. – 2021. – Т. 1. – С. 70-87.; Juanga-Labayen J. P., Labayen I. V., Yuan Q. A review on textile recycling practices and challenges //Textiles. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 174-188.; Wiegand T., Wynn M. Sustainability, the circular economy and digitalisation in the German textile and clothing industry //Sustainability. – 2023. – Т. 15. – №. 11. – С. 9111.; Sugeng A. N. R., Romasindah W., Saiful S. Regulatory and Policy Arrangement of The Textile Industry and National Textile Products for Clothing Resilience //International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS) volume-6-issue-9. – 2022. – С. 05-15.; Coppola C., Vollero A., Siano A. Developing dynamic capabilities for the circular economy in the textile and clothing industry in Italy: A natural -resource -based view //Business Strategy and the Environment. – 2023. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В.Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2013. – 560 с.

⁵ Aliqulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011. – 188-b.; Achilov A.N. Kimyo sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2019. – 54-b.; Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.07. I.f.d. diss. avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – Toshkent: 2016. – 76-b.; Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 08.00.08. – Toshkent: 2004. – 42-b.; Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. – T.: 2021. – 66-b.; Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. – T.: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. – T.: 2019. – 76-b.; Maxsudov B.Y. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) dissertatsiya avtoreferati. 08.00.08. – Toshkent: 2018. – 46-b.; Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti. Iqt. fanl. dokt. disser. avtoreferati. – T.: 2006; Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish. Iqt. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent: 2002. – 42 b.; Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. – 152 b.; Mavlyanova D.M. Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditing uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent: 2020. – 56-b.; Nurmanov U.A. Joriy aktivlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. I.f.n... diss. avtoreferati. – Toshkent: 2012. – 26-b.; Pardayev A.X., Pardayev B.X. Boshqaruv hisobi. – Toshkent: 2008. – 252-b.; Pardayev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. Iqt. fan. dok. dis. avtoreferati. – Toshkent: 2002. – 43-b.; Raxmonov N.R. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.n... diss. avtoreferati. – Toshkent: 2010. – 24-b.; Tashnazarov S.N. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2017-yil, 6-son; Tuychiyev A.J. Raqobatchilik muhiti shakllanayotgan tarmoq korxonalarida mahsulotlarni sotish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash hisobi va tahlilini takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 152-b.; Nabiyev M.A. Avtosanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar va ularni sotish hisobini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 52-b.; Maxmudov A.N. Xarajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. – T.: 2023. – 32-b.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-sonli "O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo'nalishi" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yengil sanoat korxonalarining iqtisodiyotda tutgan o'rini ochib berish;

tayyor mahsulotlar hisobi va auditining nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish;

yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini tashkil etishning amaldagi holatiga baho berish;

yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlarni hisobga olish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va undan respublikamizda foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berish;

yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

tayyor mahsulotlar auditini rejalashtirishning tashkiliy-texnologik va uslubiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

tayyor mahsulotlar auditining texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti to'qimachilik sanoati korxonalarida tayyor mahsulotlar buxgalteriya hisobi va auditining muammolari hamda tashkiliy-uslubiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, guruhlashtirish, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarida 2011-"Ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish", 2012-"Gazlama ishlab chiqarish", 2013-"Gazlamalarni bo'yash" ishchi schyotlarini hisob siyosatiga kiritish asosida ko'p bosqichli ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisobi va tayyor mahsulotlar tannarxini hisoblashning to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash asoslangan;

korxonalar hisob siyosatiga 2811-"Qadrsizlangan tayyor mahsulotlar hisobi" ishchi schyotini kiritish orqali moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchlilik darajasini oshirish va tayyor mahsulotlarni samarali boshqarishda optimal qarorlar qabul qilinishini ta'minlash asoslangan;

to'qimachilik korxonalarida hujjatlarni saqlash, nazorat va muvozanat, xodimlarning tayyorgarlik darajasi va malakasi, vazifalarning taqsimlanishi korxonalar ichki audit funksiyasining samaradorligini ta'minlash talablariga muvofiq bo'lishi

uchun “ichki nazorat muhitini baholash tizimi”ni joriy etish orqali nazorat muhiti samaradorligini oshirish va xolisona auditorlik fikrini shakllantirish asoslangan;

to‘qimachilik sanoati korxonalarida gazlama ishlab chiqarish texnologiyasi xususiyatidan kelib chiqqan holda, xomashyodan ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish, ip-kalava mahsulotlaridan gazlama ishlab chiqarish, gazlamalarni bo‘yash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarini hamda tayyor mahsulotlarni auditdan o‘tkazish bosqichlariga asoslangan algoritmi taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tayyor mahsulotlar auditida auditorlik dalillari to‘plashni algoritm tartibida, ya’ni buxgalteriya operatsiyalari dastlabki hisobidan moliyaviy hisobotlargacha aks ettirish hamda qarama-qarshi, ya’ni moliyaviy hisobotdan boshlang‘ich hisob hujjatlarigacha tekshirish usullarini qo‘llash taklif etilgan;

to‘plangan dalillarning auditorlik fikrini shakllantirishdagi ishonchlilik darajasini aniqlash maqsadida dalillarni olish manbasiga qarab, quyidagi, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri auditor tomonidan aniqlangan dalillar, uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan tekshiruvga oid dalillar va mijoz korxonadan taqdim etilgan dalillar kabi manbalarga bo‘lish orqali auditorlik dalillari tarkibini kengaytirish tavsiya etilgan;

korxonada aylanma aktivlardan samarali foydalanishni ta’minlash, ularning rentabelligini oshirish maqsadida qadrsizlanayotgan tayyor mahsulotlarni to‘plamli tovarlar ko‘rinishiga keltirib sotish, remarketing amaliyotini qo‘llash orqali qayta sotish, chegirma bilan sotish kabi yo‘llar orqali qadrsizlanayotgan tayyor mahsulotlar miqdorini kamaytirish va ularni hisobdan chiqarish tavsiya etilgan;

yengil sanoat korxonalarida bosqichli ishlab chiqarishni inobatga olgan holda, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bosqichida tuzilgan audit rejasiga qo‘shimcha band kiritish, ya’ni mijoz korxonadan bajariladigan auditorlik amallariga mas’ul bo‘lgan auditorga kerakli hujjatlar taqdim etish va boshqa operatsiyalarga bevosita ko‘maklashuvchi mijoz korxonaning mas’ul shaxsini belgilash orqali audit rejasini takomillashtirish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumtan olinganligi va maqsadga muvofiqligi; foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlarining rasmiyligi; korxonalarida oid ma’lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotni tuzishda foydalanishga joriy qilinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-uslubiy tavsifdagi taklif va xulosalardan yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobi va auditini takomillashtirish borasida nazariy muammolar yechimini hal qilish hamda buxgalteriya hisobi va audit fanlarining istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishda nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi taklif va tavsiyalardan yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini yuritish va uni auditdan o‘tkazish, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

bo'yicha mutaxassislarni o'qitish, attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish tizimida, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Moliyaviy hisob", "Moliyaviy hisobot", "Audit" va "Audit va tegishli xizmatlar" fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

to'qimachilik korxonalarida 2011-"Ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish", 2012-"Gazlama ishlab chiqarish", 2013-"Gazlamalarni bo'yash" ishchi schyotlarini hisob siyosatiga kiritish asosida ko'p bosqichli ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisobi va tayyor mahsulotlar tannarxini hisoblashning to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023-yil 27-noyabrdagi 03/25-2481-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini bosqichlar bo'yicha hisobga olish, tayyor mahsulotlar tannarxini to'g'ri shakllantirish va foydalanuvchilarni ishonchli analitik ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini bergan;

korxonalarida hisob siyosatiga 2811-"Qadrsizlangan tayyor mahsulotlar hisobi" ishchi schyotini kiritish orqali moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchlilik darajasini oshirish va tayyor mahsulotlarni samarali boshqarishda optimal qarorlar qabul qilinishini ta'minlash taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023-yil 27-noyabrdagi 03/25-2481-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi to'qimachilik sanoati korxonalarida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchlilik darajasini oshirish va tayyor mahsulotlarni samarali boshqarishda optimal qarorlar qabul qilinishini ta'minlash imkonini bergan;

to'qimachilik korxonalarida hujjatlarni saqlash, nazorat va muvozanat, xodimlarning tayyorgarlik darajasi va malakasi, vazifalarning taqsimlanishi korxonalarida ichki audit funksiyasining samaradorligini ta'minlash talablariga muvofiq bo'lishi uchun "ichki nazorat muhitini baholash tizimi"ni joriy etish orqali nazorat muhiti samaradorligini oshirish va xolisona auditorlik fikrini shakllantirish taklifi O'zbekiston Auditorlar palatasi va "KONSAUDITINFORM" MChJ shaklidagi auditorlik tashkiloti tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Auditorlar palatasining 2023-yil 14-dekabrda 12/01/14-sonli va "KONSAUDITINFORM" MChJ shaklidagi auditorlik tashkilotining 2023-yil 13-noyabrdagi 42/23-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to'qimachilik korxonalarini tashqi va ichki auditdan o'tkazishda ichki nazorat muhitini samarali baholash, nazorat bilan bog'liq risklarni to'g'ri aniqlash va pasaytirish imkonini yaratilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida gazlama ishlab chiqarish texnologiyasi xususiyatidan kelib chiqqan holda, xomashyodan ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish, ip-kalava mahsulotlaridan gazlama ishlab chiqarish, gazlamalarni bo'yash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarini hamda tayyor mahsulotlarni auditdan o'tkazish bosqichlariga asoslangan algoritmidan foydalanish taklifi O'zbekiston Auditorlar palatasi va "KONSAUDITINFORM" MChJ shaklidagi

auditorlik tashkiloti tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Auditorlar palatasining 2023-yil 14-dekabrda 12/01/14-sonli va “KONSAUDITINFORM” MChJ shaklidagi auditorlik tashkilotining 2023-yil 13-noyabrda 42/23-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini to‘liq auditdan o‘tkazish, natijada ishonchli va xolis auditorlik fikrini shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda maqola hamda 9 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 114 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan; muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon etilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obykti, predmeti va usullari berilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan; tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan; tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tayyor mahsulotlar hisobi va auditning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yengil sanoat korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ahamiyati, tayyor mahsulotlar hisobi va auditning nazariy jihatlari, normativ-huquqiy va tashkiliy-uslubiy asoslari hamda o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Bugungi kunda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati respublikamiz rivoji uchun muhim drayver sohalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda sohada 7 mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan 400 mingdan ortiq aholi muntazam ish o‘rni bilan ta’minlangan.

Respublikamiz hududida ishlab chiqarilgan ip-kalavanning 43 foizdan ortig‘i mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qayta ishlanadi. Sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqarilgan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati strategiyasi”ga asosan, 2025-yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkich 100 foizga yetkazilishi rejalashtirilmoqda.

Quyidagi rasmda mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatining 2018–2022-yillar kesimidagi o‘sib borish dinamikasi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatining yillar kesimidagi o‘sib borish dinamikasi⁶ (mlrd. dollar)

Yuqoridagi rasmdan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2018-yilda 1,6 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich yillar kesimida o‘sib borib, 2022-yilda 3,2 mlrd dollarni tashkil etgan.

2018–2022-yillar kesimida eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibi o‘rganilganda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (1-jadval).

**1-jadval
2018–2022-yillar kesimida eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibi (mln so‘m)⁷**

Mahsulot nomlari	Yillar										2022-yilda 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi
	2018	ulushi	2019	ulushi	2020	ulushi	2021	ulushi	2022	ulushi	
Ipak	49930,9	2,7	71846,2	3,1	74927,4	2,8	78097,6	2,0	92491,5	2,1	185,2
Yung	2398,5	0,1	1681,8	0,1	1348,1	0,0	1898,9	0,0	1749,3	0,0	72,9
Paxta	1029933,2	54,9	1293375,3	54,9	1200084,1	44,3	1926261,0	49,1	1606619,2	36,7	156,0
Boshqa o‘simlik to‘qimachilik tolalari	322,0	0,0	678,1	0,0	381,9	0,0	513,8	0,0	1505,8	0,0	467,6
Kimyoviy iplar	842,1	0,0	1720,1	0,1	3053,1	0,1	7753,2	0,2	7984,2	0,2	948,1
Kimyoviy tola	8723,7	0,5	19140,1	0,8	22275,5	0,8	38945,9	1,0	58862,0	1,3	674,7
Vata	26779,7	1,4	27431,1	1,2	30923,4	1,1	39707,1	1,0	54358,9	1,2	203,0
Gilam mahsulotlari	31042,0	1,7	32004,0	1,4	29244,3	1,1	42069,5	1,1	43930,8	1,0	141,5
Maxsus gazlamalar	4231,5	0,2	4382,2	0,2	6437,4	0,2	12484,7	0,3	21697,1	0,5	512,8
To‘qimachilik mahsulotlari	1996,2	0,1	2071,4	0,1	1554,7	0,1	1497,9	0,0	2384,0	0,1	119,4
To‘qimachilik gazlamalari	65503,1	3,5	84760,0	3,6	144477,4	5,3	242803,0	6,2	307715,5	7,0	469,8
Kiyim mahsulotlari	325676,8	17,4	406771,7	17,3	595537,1	22,0	763291,4	19,5	1089772,7	24,9	334,6
JAMI	1875074,3	100,0	2354652,7	100,0	2707801,4	100,0	3920636,4	100,0	4380865,8	100,0	233,6

⁶ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ www.stat.uz sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma’limotlaridan ko‘rinib turibdiki, eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari 2018-yilda 1875074,29 ming so‘m, 2022-yilda esa 4380865,8 ming so‘mni tashkil etgan va ikki baravardan ko‘proqqa oshgan hamda yil sayin to‘qimachilik tarmog‘ining eksportdagi ulushi ortib borgan.

To‘qimachilik yengil sanoatning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish, eksport, valyuta tushumi, bandlikni ta‘minlash, iste‘mol va boshqa bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z o‘rniga ega. Shu bois unda buxgalteriya hisobi, ayniqsa, tayyor mahsulotlar hisobi va auditini takomillashtirish, unga rivojlangan xorij tajribalarini tatbiq qilish muhim vazifalardan hisoblanadi.


Tayyor mahsulotlar – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlarini hosil qiluvchi aylanma aktivi hisoblanadi va tadbirkorlik subyektlari sotish natijasida foyda olishga intiladi. Shu maqsadda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmat)larni xaridorlarga yetkazib beradi va ular uchun ma’lum miqdorda haq oladi. Taniqli iqtisodchi olimlar B.A. Xasanov, A.A. Xashimov, A.B. Muhametov, A.A. Abduvohidovlarning ta’kidlashicha: “Tayyor mahsulotlar – bu sotish uchun mo‘ljallangan ishlab chiqarish siklining oxirgi natijasidir. Bular korxonada ishlab chiqarilgan tayyor va yarim tayyor mahsulotlar, to‘liq komplektlangan, ularni tasdiqlangan tartibda qabul qilish bo‘yicha korxonada omboriga topshirilgan va sotishga tayyordir. Texnologik qayta ishlashning barcha bosqich va jarayonlaridan, sinovdan o‘tgan, jihozlangan, belgilangan me‘yor va talablarga javob bergan, tayyor mahsulotlar omboriga topshirilgan va tegishli birlamchi tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bo‘lsa, mahsulotlar tayyor hisoblanadi. Agar bunday mahsulotlarga nisbatan yuqoridagi shartlardan kamida bittasi bajarilmasa, buxgalteriya hisobida qilingan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish mahsulotlari tarkibiga olib boriladi”⁸.

Tayyor mahsulotlar tushunchasi xorijlik olimlar tomonidan ham ta’riflangan. Jumladan, Brooke Tomasettning fikricha, “Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish siklidan o‘tgan va kompaniya tomonidan tarqatish yoki sotishga tayyor bo‘lgan har qanday mahsulotdir. Ular tovar-moddiy zaxiralarning bir turi hisoblanadi. Umuman olganda, ular hali ham iste‘molchilar emas, balki kompaniyaning qo‘lida. Shunday qilib, tayyor mahsulotlar boshqa xomashyo va materiallar, aylanma aktivlarning bir qismidir. Ular ishlab chiqarish jarayoni tugagandan so‘ng kompaniyada qolishi mumkin, ammo uzoq vaqt emas. Yoki, aniqrog‘i, bir yildan ortiq emas”⁹.

Tayyor mahsulotlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari – bu yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlarni tizimli va aniq hisobga olish uchun qo‘llaniladigan tartib va usullar majmuyidir. Korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini ta‘minlashda tayyor mahsulotlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari muhim o‘rin tutadi. Ular tayyor mahsulotlarni hisobga olishning aniqligi va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq ma’lumotlar olish imkonini beradi (2-rasm).

⁸ Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvohidov A.A. “Buxgalteriya hisobi”. Darslik. – T.: 2020. – 1025-b.

⁹ <https://www.carboncollective.co/sustainable-investing/finished-goods>.




2-rasm. Tayyor mahsulotlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari tavsifi¹⁰

Tayyor mahsulotlar auditining tashkiliy-uslubiy jihatlari – bu korxonada tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va hisobga olish bilan bog‘liq jarayonlarni tizimli hamda aniq tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan tartib-taomillar to‘plamidir. Tayyor mahsulotlar auditining tashkiliy-uslubiy jihatlari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va mahsulot sifatini ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi. Ular tayyor mahsulot auditining to‘g‘riligi va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlashga yordam beradi, ishlab chiqarish va sotish sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma‘lumot beradi. Tayyor mahsulotlar auditining tashkiliy-uslubiy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi (3-rasm):

Shuni ta‘kidlash joizki, moliyaviy hisobotlar auditida tayyor mahsulotlar auditi o‘ziga xos o‘ringa ega. Tayyor mahsulotlarni auditdan o‘tkazish balansning boshqa moddalarini auditdan o‘tkazishdan bir nechta jihatlari bilan farq qiladi. Xususan, tayyor mahsulotlarni tekshirish ishlab chiqarish sikli (davri) bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, dastlab xomashyo va materiallar hisobi to‘g‘ri yuritilganligini tekshirish, uning saqlanish holatini tekshirish, mahsulot ishlab chiqarishdagi sarf miqdorini tekshirish, tayyor mahsulotlar tannarxi shakllanishini tekshirish, yaratilgan tayyor mahsulotlarni saqlash sharoitlarini o‘rganish va ularni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan butun boshli bir tizimni auditdan o‘tkazishdek jarayonni o‘z ichiga oladi.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.



3-rasm. Tayyor mahsulot auditining tashkiliy-uslubiy algoritmi¹¹

Bundan tashqari, tayyor mahsulotlarni auditdan o'tkazishning yana bir jihati – bu tannarx kalkulyatsiyasining mavjudligidir. Buni bir-birlik yaratilgan tayyor mahsulotga ketgan xarajatlarning aniq qiymati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Auditor tayyor mahsulotlar auditida ishlab chiqarish xarajatlarini o'rganish bilan kifoyalaniq qolmasdan, mazkur mahsulot sifatli ekanligi, xalqaro sifat standartlari talablariga javob berishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobining hozirgi holati va uni takomillashtirish”** deb nomlanib, unda yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar hisobini tashkil etishning hozirgi holati va xorij tajribasi tadqiq qilingan, chet el tajribasidan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“Tovar-moddiy zaxiralar” nomli 4-son BHMSga muvofiq, “tayyor mahsulot xo'jalik yurituvchi subyektlarda bo'lgan aktivlar hisoblanadi va ular xo'jalik yurituvchi subyektning kundalik faoliyatida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot, tovarlar sifatida korxonaning tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga kiradi”¹².

Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har bir korxonada ishlab chiqarish faoliyatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Mahsulotni rejadagi hajmi bo'yicha sotish tashkilotga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, davlat budjeti, kredit bo'yicha banklar va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam beradi. Mahsulotni sotishga doir operatsiyalar bo'yicha ma'lumot manbalari quyidagilar:

- mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hisobiga doir normativ-huquqiy hujjatlar;
- tayyor mahsulotni rejalashtirish va tayyorlash bo'yicha korxonadagi hujjatlar;
- mahsulot ishlab chiqarish, jo'natish va sotilishiga doir boshlang'ich hujjatlar va shartnomalar;

¹¹ Muallif ishlanmasi.

¹² 4-sonli BHMS.

4010-, 2810-, 9010-, 9110-schyotlar va boshqa schyotlar ma'lumotlari;
 hisob registrlari va qaydnoma ma'lumotlari;
 "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-son shakli).

Tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettiriladi va buning uchun 2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotidan foydalaniladi (2-jadval).

2-jadval

2800-"Tayyor mahsulotlar" schyoti korrespondensiyasi¹³

Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit
Asosiy, yordamchi sexlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan tayyor mahsulotlarning kirim qilinishi	2810	2010, 2310, 2710
Tayyor mahsulotni qayta baholash: a) qiymatining oshirilishi; b) qiymatining kamaytirilishi	2810 3190	6230 2810
Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxini hisobdan chiqarish	9110	2810-2830


To'qimachilik sanoati Hindiston, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Misrda, ayniqsa, taraqqiy etgan. Rivojlangan mamlakatlar to'qimachilik sanoatida birinchi o'rinni paxta tolasidan ip gazlama ishlab chiqarish egallaydi. Jun va shoyi gazlamalar ishlab chiqarish keyingi o'rinlarda turadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz to'qimachilik tarmog'i bo'yicha rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo'shilmoqda. Shu bois dissertatsiya ishimizda yengil sanoatning to'qimachilik tarmog'i korxonalarida tayyor mahsulotlarni hisobga olish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi.

Yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish faoliyatidan keladigan daromad xarajatlarni qoplashga va sof foydani shakllantirishga xizmat qiladi. Daromadlarni tahlil qilish uchun sotilgan mahsulot hajmi va tarkibi, budget maqsadlarini bajarish dinamikasi va darajasini aks ettiruvchi turli xil miqdoriy, tannarx va nisbiy ko'rsatkichlarning keng doirasi qo'llaniladi. Har xil turdagi korxonalarining ishlab chiqarish ko'lami, tarmoqqa mansubligi ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlari tizimini tashkil etuvchi ma'lum ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi (4-rasm).


Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish uchun dastlabki hujjatlarni hisobga olish moddiy javobgar shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va hujjatlarda barcha zarur ma'lumotlar, ya'ni qabul qilingan hujjatning nomi, uning sanasi va raqami, hujjatning qisqacha tavsifi, uni ro'yxatdan o'tkazish sanasi va olingan tovarlar haqidagi ma'lumotlar to'liq aks ettiriladi.

¹³ 21-sonli BHMS asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://bhms.uz/wp-content/uploads/2017/07/21.doc>



4-rasm. To'qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi ko'rsatkichlari tavsifi¹⁴

Materiallarni qabul qilish uchun berilgan hujjatlar yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar uchun asos bo'lib, ularning ma'lumotlari korxonada tomonidan materiallar qabul qilingandan keyin qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas (tovarlarning tabiiy kamayishi va ularni tashish paytida nobud bo'lishlar bundan mustasno) (5-rasm).




5-rasm. Yengil sanoat korxonalarida tayyor mahsulotlarni hisobga olish uchun hujjatlarni dastlabki qayta ishlashning umumiy tavsifi¹⁵

¹⁴ Xorijiy tajriba asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵ Xorijiy tajriba asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, tayyor mahsulotlar ham qadrsizlanishga uchrashi mumkin.

Korxonada o'zining qadrsizlanayotgan tayyor mahsulotlarini aniqlaganidan so'ng salbiy oqibatlariga olib kelmaslik uchun ularni hisobdan chiqarishi muhim. Qadrsizlanayotgan tayyor mahsulotlarni hisobdan chiqarishning bir necha usullari mavjud va tanlangan usul tayyor mahsulotlarning turlari, qiymati va biznes maqsadlari kabi omillarga bog'liq (6-rasm).



6-rasm. Qadrsizlanayotgan tayyor mahsulotlarni hisobdan chiqarish usullari va ularni qo'llash algoritmi¹⁶

Hozirgi kungacha bo'lgan davr mobaynida ko'plab to'qimachilikka ixtisoslashgan korxonalarining asosiy faoliyati xomashyodan to tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olmasdan, ko'pincha yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlab, tayyor mahsulotlar ko'rinishiga keltirishdan iborat bo'lgan.

Tayyor mahsulotlar tannarxini pasaytirish, aholini arzon va sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlash maqsadida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulotlar tannarxini kamaytirish, ularning nomenklaturasini kengaytirishda klasterlarni tashkil etish masalasi bunga yaqqol misoldir.

Adabiyotlarda klaster tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Klaster – bu xomashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizimdir"¹⁷.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, to'qimachilik tarmoqlarida bosqichli ishlab chiqarish jarayonlarini inobatga olib, har bir bosqichda qo'shilgan qiymatning yaratilishi hamda tashqi foydalanuvchilarga aniq va shaffof ma'lumotlar taqdim etish maqsadida hisob siyosatiga quyidagi ishchi schyotlarni kiritishni taklif etamiz:


2011-"Ip-kalava mahsulotlari ishlab chiqarish";

2012-"Gazlama ishlab chiqarish";

2013-"Gazlamalarni bo'yash".

¹⁶ Muallif ishlanmsi.

¹⁷<https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627303540339-1f142bf1-6d22> internet ma'lumotlaridan foydalanilgan.



8-rasm. Tayyor mahsulot qadrsizlanishini yuzaga keltiruvchi omillar¹⁹

